

Qoraqalpog‘iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari
- IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo‘yicha taqsimoti
- V. Qurilish ishlari bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-mart oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami 1 764,4 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Nukus shahri (374,8 mlrd so‘m), To‘rtko‘l tumani (134,7 mlrd so‘m) va Ellikqal‘a tumanida (85,8 mlrd so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 764,4	105,8
Nukus shahri	374,8	104,8
<i>tumanlar</i>		
Amudaryo	75,0	103,4
Beruniy	81,5	107,8
Bo'zotov	21,0	102,9
Qorao'zak	22,4	109,8
Kegeyli	24,4	101,8
Qo'ng'iro't	51,8	109,6
Qonliko'l	26,9	108,7
Mo'ynoq	64,4	70,2
Nukus	68,9	110,1
Taxiatosh	70,6	133,6
Taxtako'pir	28,2	128,4
To'rtko'l	134,7	107,4
Xo'jayli	45,3	119,1
Chimboy	48,1	100,4
Shumanay	18,7	134,7
Ellikqal'a	85,8	111,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 74,3% i yoki **1 311,0** mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **102,1** mlrd so'm, *jamiga nisbatan ulushi – 7,8 %;*

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – **668,5** mlrd so'm *hamda ulushi – 51,0 %;*


Norasmiy sektor – **540,4** mlrd so'm *hamda ulushi – 41,2 %.*

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 66,9% ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 95,2% ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 24,9% ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 128,1% ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 8,2% ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 170,7% ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari o‘sish sur‘ati va hajmi



Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko‘rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq “Qurilish faoliyati bo‘yicha o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi” ko‘rsatkichi qo‘llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 5,3% ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,2% ga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,4% ga kamayib 47,8% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,6% ga ko‘payib, 46,9% ni tashkil etdi.


Bino va inshootlar qurilishining hajmi va o'sish sur'ati



Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 20,5 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,8 % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,8 % ga kamayib 79,5 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlari qurilishining hajmi va o'sish sur'ati




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 8,3 % ga kamaydi va 4,4 % ni tashkil etdi.

Qolgan 95,6 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 8,3 % ga ko'paydi.

**Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish
ishlari hajmi va o'sish sur'ati**



**IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar
turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati**





Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 159,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,1 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,2 % ga ko'payib, 9,0 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 59,6 % i to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 110,1 % ni tashkil etgan holda 1052,3 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Resp.	159,1	1 052,3	553,0	109,1	110,1	97,6
Nukus shahri	3,4	356,6	14,8	25,2	108,4	96,4
<i>tumanlar</i>						
Amudaryo	1,2	41,0	32,8	37,7	110,2	102,0
Beruniy	2,2	65,6	13,7	184,7	109,2	95,7
Bo'zotov	0,5	17,2	3,3	100,2	107,9	82,7
Qorao'zak	2,9	14,9	4,6	160,7	107,5	97,0
Kegeyli	1,0	18,3	5,1	18,0	142,1	96,1
Qo'ng'iro't	27,4	18,5	5,9	241,5	61,5	101,9
Qonliko'l	0,9	9,1	16,9	127,6	124,2	101,0
Mo'ynoq	12,7	45,5	6,2	28,1	113,8	96,9
Nukus	0,8	46,3	21,8	50,8	118,7	99,1
Taxiatosh	18,9	42,2	9,5	1 365,5	101,9	94,2
Taxtako'pir	6,0	17,1	5,1	984,5	107,2	94,5
To'rtko'l	8,9	92,2	33,6	62,6	122,9	92,7
Xo'jayli	0,3	29,3	15,7	-	132,9	98,0
Chimboy	1,0	12,3	34,8	51,7	113,0	99,1
Shumanay	1,4	8,3	9,0	136,3	255,6	93,7
Ellikqal'a	13,5	58,3	14,0	141,4	107,9	103,1

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 31,3 % ni yoki 553,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 97,6 % ni tashkil etdi. Shundan 540,0 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 97,8 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 0,4 mlrd so'mni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 12,6 mlrd so'mni va 110,3 % ni tashkil etdi.



V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta‘mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o‘zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta‘minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o‘rnatish, devorlarni ko‘tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qo‘shmagan holda, to‘lov muddatidan qat‘i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo‘yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo‘yicha statistik ma‘lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug‘ullanuvchi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma‘lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo‘jalik usuli bilan ta‘mirlash hajmini statistik baholash.

Metama‘lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-ion-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas‘ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo‘limi

Ijrochi:

D. Abdullaeva

Manzil:

230103, Nukus, A. Dosnazarov
ko‘chasi, 97 a-uy

Pochta: info@qrstat.uz

Tel.: +998 (61) 222-75-91
